



## KATTA TENNIS: TARIXI, LEKSIKASI VA TERMINOLOGIYASI

Feruz MUSAJEVA<sup>1</sup>

<sup>1</sup>ISFT bosh mutaxassisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

<p><b>KALIT SO‘ZLAR</b></p> <p>Katta tennis, laun tennis, qiroi tennis, professional tennis, jamoaviy tennis o‘yinlari, Devis kubogi, Katta Dubulg‘a, Xalqaro tennis federatsiyasi, raketka, kumush kubok, lagan, geym, set, bolboy.</p>	<p><b>ANNOTATSIYA</b></p> <p>Ushbu maqolada katta tennis tarixi, xalqaro tennis leksikasining o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek tennis terminologiyasi rivoji masalalari tadqiq etilgan. Xalqaro katta tennis terminologiyasi tarix taqozosi bilan fransuzcha va inglizcha so‘zlardan iboratligi, O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan tennis musobaqalarida fransuzcha va inglizcha so‘zlar bilan bir qatorda “barobar”, “ko‘proq” kabi o‘zbekcha so‘zlar qo‘llanishi, o‘zbek tennis terminologiyasi fransuzcha, inglizcha, ruscha va o‘zbekcha birliklardan tarkib topganligi haqida mulohaza yuritilgan.</p>
<p><b>КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА</b></p> <p>Большой теннис, лаун-теннис, королевский теннис, профессиональный теннис, командные теннисные состязания, Кубок Дэвиса, Большой шлем, Международная теннисная федерация, ракетка, серебряный кубок, салатница, игра, сет, болбой.</p>	<p><b>АННОТАЦИЯ</b></p> <p>В данной статье рассмотрены история большого тенниса, специфика международной теннисной лексики, вопросы развития узбекской теннисной терминологии. Автор отмечает, что терминология международного большого тенниса в силу исторических событий состоит из французских и английских слов, а на теннисных соревнованиях в Узбекистане наряду с французскими и английскими выражениями используются также узбекские слова, как например “barobar” (равно), “ko‘proq” (больше), узбекская теннисная терминосистема состоит из французских, английских, русских и узбекских лексических единиц.</p>
<p><b>KEY WORDS</b></p> <p>Lawn tennis, lawn tennis, royal tennis, professional tennis, team tennis competitions, Davis Cup, Grand Slam, International Tennis Federation, racket, silver cup, salad bowl, game, set, ball boy.</p>	<p><b>ABSTRACT</b></p> <p>This article examines the history of lawn tennis, the specifics of the international tennis vocabulary, and the development of Uzbek tennis terminology. The author notes that the terminology of international lawn tennis, due to historical events, consists of French and English words, and at tennis competitions in Uzbekistan, along with French and English expressions, Uzbek words are also used, such as “barobar” (Deuce), “ko‘proq” (Ad), the Uzbek tennis terminology system consists of French, English, Russian and Uzbek lexical units.</p>

**Kirish.** Katta tennis respublikamizda ommalashgan sport turlaridan biri. 1993-yilda O‘zbekistonning Xalqaro tennis assotsiatsiyasi ITFga to‘laqonli a‘zo bo‘lishi va mamlakatimizda Prezident kubogi kabi nufuzli tennis musobaqasining o‘tkazilishi, turnirga o‘sha davrning yetakchi raketka ustalari –

rossiyalik Yevgeniy Kafelnikov, buyukbritaniyalik Xenman, shveysariyalik Rosselarning tashrif buyurishi O‘zbekistonda tennis rivojiga yangi tirtki berdi. Ko‘plab tennis kortlari qurildi, viloyatlarda tennis maktablari tashkil etildi, xalqaro tennis musobaqalari o‘tkazila boshladi – bularning bari o‘zbek sport

terminologiyasining tennis atamaları bilan boyishiga xizmat qildi [1].

**Metodologiya.** Katta tennis tarixi va terminologiyasi mavzusini o‘rganishda kuzatish, etimologik tahlil, qiyosiy tarixiy usul, kognitiv tahlil, komponent tahlil, semasiologik tahlil kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, tennis terminologiyasining struktur tahlilini amalga oshirishda statistik tahlil usuli tatbiq etildi.

**Xulosa va natijalar.** Xalqaro tennis terminologiyasida asosiy tushunchalar nomlari fransuz va ingliz tillariga mansub. Bu, albatta, tennis sport turining tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

Mutaxassislarining fikricha, “tennis” so‘zi fransuzcha “tenez” (“tenir”) – ushlamoq, tutmoq) fe‘lidan kelib chiqqan. Chunki tennischilar to‘p uzatishda “Tenez!” (ushla) deb baqirishgan [2].

Katta tennis “qirol tennis” (royal tennis) nomi bilan yuritilgan musobaqa zamirida shakllangan. Royal tennis “haqiqiy tennis” yoki “qirol tennis” deb tarjima qilinadi. Ushbu musobaqa o‘rta asrlarda Fransiya qirollik saroyida ham mashhur bo‘lgan. Qirol tennis o‘rta asrlarda Buyuk Britaniyada ham, ayniqsa Genrix VII zamonida keng tarqalgan. Shuning uchun zamonaviy tennis terminologiyasining asosiy qismi Fransiya qiroli saroyida o‘ynalgan qirollik tennis terminlarini qamrab olgan [3].

Professional sport sifatida tennis 1872-yilda shakllandi. Aynan shu yili ilk katta tennis klubi tashkil etilgan. Limington kurortlari chimzorlarida portugaliyalik savdogar Xoa Pereyra Frederik Xeyns va Uelsli Tomkinslar bilan “pilota” to‘pli o‘yinini o‘ynashgan. Katta

tennis (laun tennis) o‘yining qonun-qoidalari keyinroq yaratilgan [4].

Katta tennis kelib chiqishi borasida mutaxassislar yakdil bo‘lmalar-da, ko‘pchilik keyinchalik “Katta tennis” bilan mashhur bo‘lgan o‘yin qoidalari 1873-yilda ingliz armiyasi ofitseri Uolter Uingfild tomonidan o‘ylab topilganligini e‘tirof etishadi. Ushbu sport turining ulkan tijoriy salohiyatini ko‘rgach, u o‘yinni patentlashga qaror qiladi. O‘yin qoidalarini o‘zi “Sphairistike” (yunonchada “to‘p o‘yini”) deb yuritgan qadimgi yunon o‘yini qoidalaridan o‘zlashtirganini ta’kidlaydi. Ammo aksariyat mutaxassilar Uingfild katta tennis qoidalarini o‘sha davrda mashhur bo‘lgan ingliz o‘yinlari qoidalaridan olganligini e‘tirof etishadi. Masalan, kort o‘yini, skvosh uchun raketka, badminton o‘yinlari [4]. Uingfild o‘ylab topilgan o‘yin avval chim bilan qoplangan kichik maydonchada o‘tkazilganligi tufayli, dastlab u “laun tennis” deb yuritilgan. Ushbu atama inglizabon mamlakatlarda hozir ham qo‘llansa-da, ancha iste‘moldan chiqqan; o‘zbek tilida esa umuman qo‘llanmaydi.

Tennisning AQShga kirib kelishida Meri Yuingning xizmatlari katta. Birinchi tennis matchi taxminan 1874-yilda Steyten Aylenddagi kriket va beysbol klubi maydonlarida bo‘lib o‘tgan.

Ilk havaskorlik chempionati Tennis va kriket bo‘yicha umumiy ingliz klubi kortlarida – Uimblonda bo‘lib o‘tgan. Erkaklar o‘rtasida chempionat 1877-yilda, ayollar o‘rtasida esa 1884-yilda o‘tkazilgan.

1900-yilda Bruklinda katta tennis bo‘yicha xalqaro jamoaviy turnir tashkil etildi. Unda Amerika va Buyuk Britaniya terma jamoalari



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

ishtirok etdi. Turnir qoidalari va o‘yin tartibini Devis Duayt o‘ylab topgan. U o‘z pullariga g‘oliblar uchun sovrin – kumush kubokni xarid qiladi. Jamoaviy tennis o‘yinlari ommalashib, dastlab Lawn Tennis Challenge yuritilgan bo‘lsa, keyinchalik uning asoschisi Devisning vafotidan so‘ng, ya‘ni 1956-yildan boshlab Devis kubogi deb atala boshladi [2]. 1963-yilda jamoaviy turnirlar ayollar o‘rtasida ham o‘tkaziladigan bo‘ldi va u federatsiya kubogi deb yuritiladigan bo‘ldi. Ushbu turnir Devis kubogi muqobiliga aylandi.

Tennis katta daromad keltira boshlagandan keyin, XX asrning 20-yillaridan boshlab ko‘plab havaskor tennischilar professional turlarga qo‘shildi.

XIX asr oxiriga kelib kata tennis inlizlarning mustamlakalariga, jumladan Avstraliyaga, keyinchalik boshqa hududlarga ham keng yoyila boshladi. AQShda kata tennis qoidalari doim o‘zgarib, mukammalashib boravergan. 1881-yilda esa AQShda Katta tennis assotsiatsiyasi (USTA – United States Lawn Tennis Association) ga asos solinadi. Assotsiatsiya katta tennis qoidalari standartlari, musobaqalarni o‘tkazish qoidalarini ishlab chiqdi.

XX asr boshlariga kelib ko‘plab davlatlarning milliy tennis assotsiatsiyalari tashkil etilib, ularning birlashish ehtiyoji yuzaga keldi. 1913-yil 1-martda 12ta milliy assotsiatsiya vakillari Parijda yig‘ilib, Xalqaro tennis federatsiyasi (ing. International Lawn Tennis Federation)ni tashkil etishga qaror qilishadi. Hozirda ushbu tashkilot jahondagi 205 ta davlatning milliy federatsiyalarini o‘z ichiga oladi [11]. O‘zbekiston ITFga 1993-yilda a‘zo bo‘lgan.

Shu bilan yirik tennis tashkilotlarining ta‘sis etilishi to‘xtab qolgani yo‘q. 1972-yilda tennis bilan professional darajada shug‘ullanuvchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun Professional tennischilar assotsiatsiyasi (ing. Association of Tennis Professionals, ATP) tashkil etiladi [12]. Ushbu assotsiatsiya erkak tennischilarni qamrab oladi. 1973-yilda esa uning muqobili sifatida ayollar uchun tennis assotsiatsiyasi (Women’s Tennis Association, WTA) tashkil etiladi. Uning asoschisi mashhur amerikalik tennischi Billi Jin King [13]. Ushbu tashkilotning asos solinishi erkaklar singari ayollarga ham moliyaviy ko‘mak berish imkoniyatini yaratdi. Mana shu ikkita yirik tennis tashkilotlarining musobaqalari juda ko‘p muxlislarni jalb qiladi va tomoshaviyligi bilan mashhur. Bu assotsiatsiyalar har hafta 52-hafta yakunlariga ko‘ra tennischilarning reytinglarini e‘lon qilib boradi. O‘zbekistonlik tennischilardan Denis Istomin ATP reytingida 33-o‘ringacha (2012-ншд), Iroda To‘laganova esa WTA reytingida 16-o‘ringacha ko‘tarilgan [2002-yil].

O‘zbekiston tennis tarixi XX asming boshlaridan boshlanadi. Birinchi tennis maydonchasi 1903-yilda Toshkent shahrida qurilgan. Bu maydoncha, tennis murabbiyi chexiyalik Van Drachek tomonidan “qo‘l bola” usulida tayyorlangan. Keyinchalik tennis maydonlari Farg‘ona, Xo‘jakent, Qo‘qon va Samarqandda paydo bo‘la boshlagan. O‘zbekistonda tennis, asosan, 1928-1930-yillardan keyin rivojlanishga boshlagan. 1936-yilda birinchi bor Toshkentda shahar birinchiligi o‘tkazilgan. 1960-1970-yillarda tennis maydonchalari Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Olmaliq, Chirchiq, Namangan, Surxondaryo va



Xorazm viloyatlarida barpo etildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda sport, jumladan, tennisni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Respublikamizning turli burchaklarida qurilgan zamonaviy tennis maydonlari xalqaro talablarga javob beradi [14; 25].

Katta tennis nafaqat shakllanish tarixi nuqtayi nazardan, balki ochkolarni hisoblash jihatidan ham o‘ziga xos. O‘yinda ochko qo‘lga kiritgan sportchiga avval 15 ochko beriladi, ikkinchi yutuqqa ham 15 ochko hisoblanib, uchinchi g‘alabali to‘pdan so‘ng 10 ochko beriladi va o‘yinchi 40 ochko qo‘lga kiritgan hisoblanadi. Bunday noyob hisob-kitob shaklining kelib chiqishi borasida ham sport tarixchilari turli fikrlarni ilgari surishadi. Ularning birontasi ishonchli tarixiy dalilga ega bo‘lmasa-da, uning qachon va qayerda paydo bo‘lganligi aniq. Olimlar bunday hisob-kitob o‘rta asrlarda Fransiyada shakllangan deb hisoblaydi. Farazlardan biriga ko‘ra, o‘rta asrlarda o‘yinchi 60 suga teng tangaga o‘ynashgan. Xalq tilida bu tanga “toj” deyilgan. Toj, o‘z navbatida, qiymati maydaroq, har biri 15 suga teng 4 ta tangaga almashilgan. Geymda baholanadigan 4 ta zarba shundan kelib chiqqan bo‘lsa kerak. Boshqa bir farazga ko‘ra, kort yonida soat bo‘lgan. har bir ochko o‘yinidan so‘ng, soatning katta mili 15 bo‘lmaga oldinga surilgan va mos ravishda 15, 30, 45 belgilarini bosib o‘tgan (fr. “quinze”, “trente”, “quarante”). Soat mili bir marta to‘liq aylansa, geym yutilgan hisoblangan. Keyinchalik 45 ochko 40 ga o‘zgargan. O‘yinda hisob tenglashib, har ikkala o‘yinchi 40 ochko to‘plagan holda, “deuce” termini ishlatiladi. Ushbu atama fransuzcha “a deux le jeu” birikmasidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘yinda hisob teng” ma’nosini anglatadi [5].

Boshqa bir farazga ko‘ra, tennisda to‘p uzatish chizig‘i to‘rdan 60 qadam narida bo‘lgan. Har bir uzatmadagi g‘alaba o‘yinchi raqibga 15 qadam yaqinlashish imkoni bergan. To‘rga juda ham yaqin kelib qolmaslik uchun, yutib olingan uchinchi to‘pdan keyin 10 qadam oldinga yurilgan [6].

0 hisobini ifodalashda tennisda inglizcha “love” so‘zi ishlatiladi, masalan 40-0 hisobini ma’lum qilish uchun hakamlar “forty-love” deyishadi. Love so‘zi ham fransuzchadan olingan bo‘lib, uning ushbu so‘z ifodalaydigan “sevgi” tushunchasiga aloqador emas. Aslida bu fransuzcha “l’oeuf” so‘zi bo‘lib, tarjimada “tuxum” deganidir. 0 shaklan tuxumni eslatgani uchun fransuzlar uni tuxum so‘zi bilan ifodalashgan [2].

Katta tennis terminologiyasining shakllanishi ham juda murakkab va qiziqarli. Tennis terminologiyasining asosiy qismi fransuzcha so‘zlardan iboratligi e’tirof etilsa-da, ayrimlar uning asosiy quroli – raketka so‘zining kelib chiqishini “kaft” ma’nosini beruvchi arabcha *rakhat* so‘ziga bog‘lashadi [7]. Ammo rus tili etimologik lug‘atlarida “raketka” so‘zining “to‘r” ma’nosini beruvchi fransuzcha *raquette* so‘zidan kelib chiqqanligi qayd etilgan. O‘z navbatida fransuzcha *racchetta* italyanча *retichetta* so‘ziga borib taqalishi, italyanча so‘z esa ayni ma’nodagi lotinча *rete* (to‘r)ga aloqadorligi ta’kidlangan [8].

Katta tennisda “Katta dubulg‘a” turkumiga kiruvchi musobaqalar nufuzli musobaqalar turkumiga kiradi. Dunyoning yetakchi tennischilari ushbu musobaqalarda qatnashishni orzu qilishadi. Katta dubulg‘a musobaqalariga Avstraliya ochiq chempionati, Fransiya ochiq chempionati yoki Rollan Garros, Uimbldon

turniri hamda Amerika ochiq chempionati kiradi. Bir mavsum doirasida ushbu nufuzli musobaqalarning barchasida g‘olib bo‘lgan sportchiga “Katta dubulg‘a”ni qo‘lga kiritdi deyishadi.

“Katta dubulg‘a” nomi o‘zbek tiliga kalka orqali rus tilidagi “Большой шлем” atamasidan tarjima qilib olingan. Ruscha nom esa, o‘z navbatida, inglizcha “grand slam”dan olingan. “Grand slam” atamasi “brij” qarta o‘yinidagi grand slamdan kirib kelgan. Brij o‘yinida “slam” bir yurishda barcha yutuqli qartalarni qo‘lga kiritishni anglatadi. “Slam” Oksford lug‘atida “kuchli zarba” deb izohlangan [9]. Demak, qarta o‘yinida bir yurishda hamma yutuqli qartalarni yutib olish bir zarba berish harakatiga o‘xshatilgan. So‘zning etimologiyasidan ayonlashadiki, “slem”ning ruschadagi “шлем”, ya’ni bosh kiyimga aloqasi yo‘q. Bu so‘zning ruschada “zarba” ma’nosi yo‘q. Ruschaga xato tarjima qilingani tufayli, atama o‘zbek tiliga ham xato tarjima qilingan va shunday sport sharhlovchilarning nutqiga shu tarzda o‘zlashgan. Katta dubulg‘ani qo‘lga kiritish tennischilar uchun kata sharaf hisoblanadi. Uning o‘rnini faqat Oltin dubulg‘a qoplashi mumkin. Oltin dubulg‘a Katta dubulg‘adan ham kattaroq yutuq bo‘lib, 4 ta yirik musobaqadagi g‘olibligidan tashqari Olimpiadadagi yutuq ham qo‘shiladi.

“Katta dubulg‘a”ning brij o‘yiniidan tennisga ko‘chib o‘tishi tarixi ham juda qiziq. 1933-yilda avstraliyalik Jek Krouford yirik uchta musobaqada g‘alaba qozonib, Nyu-Yorkdagi Amerika ochiq chempionatining finaliga chiqib, to‘rtinchi yutuqni ham qo‘lga kiritishga hozirlanayotgan edi. Sport dunyosining yirik voqeligi bo‘lmish Amerika

chempionatini Nyu-York tayms gazetasi sahifalarida yoritayotgan va qarta o‘yinlaridan yaxshigina xabardor sport muxbiri Jon Kiran ushbu muvaffaqiyatni qartadagi katta yutuq bilan qiyoslab, shunday deb yozgan edi: “Agarda Krouford bugun perri ustidan g‘alaba qozonsa, bu kortda katta shlemni qo‘lga kiritish bilan teng bo‘lar edi”. Krouford o‘yinda mag‘lub bo‘ladi, ammo ibora yashab qoladi. Yana boshqa farazga ko‘ra, iboraning kelib chiqishi 1938-yilda paydo bo‘lgan. Shu yili Donald Baj yil davomida to‘rtta turnirning barchasida g‘alaba qozongan. Mashhur amerikalik jurnalist Ellison Dansig bu hodisani quyidagicha ta’riflagan: “brij o‘yinidagi muvaffaqiyatli o‘yinchi singari Baj bir yil ichida to‘rtta yirik musobaqada g‘alaba qozonib, Katta shlemni qo‘lga kiritdi” [10].

O‘zbek tennis terminologiyasi struktur jihatdan 2 ta yirik qatlamga ajratsak bo‘ladi: 1) o‘zlashgan qatlam va 2) o‘z qatlam. O‘zlashgan qatlamga rus tili orqali kirib kelgan inglizcha, fransuzcha va ruscha so‘zlarni kiritishimiz mumkin. O‘z qatlamga o‘zbek tili zamirida hosil bo‘lgan birliklar kiradi.

O‘zlashgan qatlam: *tennis, smesh, tay-breyk, geym, set, kort, forxend, eys, setbol, breyk, xok-ay (to‘p chiziqqa teggan-tegmaganligini aniqlab beradigan, videotakrordan iborat maxsus dasturiy ta’minot), xard, miks, kross, chellenj.*

O‘z qatlam birliklarini o‘z navbatida bir necha guruhga tasniflash mumkin:

1) Sport ma’nosida qo‘llanadigan umumleksik so‘zlar: *zarba, hakam, to‘p, uzatma, o‘yin, chiziq, maydon, to‘r, murabbiy, hujum.*

